

AYUB G'ULOMOVNING “ANIQLOVCHILARGA OID QARASHLARI”

Ernazarova Maxliyoxon Qobiljonovna

O‘zbekiston milliy universiteti

O‘zbek filologiya fakulteti, Lingvistika yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada aniqlovchining turlari, gapdagi vazifasi va o‘rni haqida, qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanishi, maktab darsligi va OTM darsliklaridagi o‘xshash va farqli jihatlari hamda Ayub G’ulomovning aniqlovchi haqida bildirgan fikrlari haqida mavzu yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Aniqlovchi, aniqlanmish, semantik va grammatik xususiyat, sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi, belgili va belgisiz aniqlovchi.

Predmet ma’nosini bildiruvchi so‘zni izohlaydigan va uning belgisini anglatadigan ikkinchi darajali bo‘lakka aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchi predmetning xususiyatini, qarashliligini va shu kabilarni ifodalaydi. Aniqlovchi leksik-semantik va grammatik jihatdan uch xil bo‘ladi: sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi.

1. Sifatlovchi aniqlovchi

Aniqlovchining bu turi ot bilan ifodalangan bo‘lakka odatda bitishuv yo‘li bilan bog‘lanib, otdan anglashilgan predmetning belgi-xususiyatini, sifatini, miqdorini, o‘ringa munosabatini bildiradigan aniqlovchining bir turidir. U qanday?, qanaqa?, qaysi?, qancha?, necha?, nechanchi?, qachongi?, qayerdag? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Sifatlovchi bog‘lanib kelgan so‘z sifatlanmish deb ataladi.

Sifatlovchi aniqlovchi turli so‘z turkumlari bilan ifodalanadi:

- 1) sifat bilan: Quyoshning issiq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo‘lib qoldi. (O‘.Hoshimov). Rang-barang gullar, har xil ekinlar, bog‘lar, suvlar quyoshda yashnab tovlanadi (Oybek). Yaxshi so‘z, yaxshi muomala, ishq-muhabbat – insonni insonga, qalbni qalbga bog‘laydigan sehrli ip. (Sh.Ubaydullayev).
- 2) son bilan: Ikkita zog‘ora non bilan to‘rtta turshakni dasturxonga qo‘yib tamaddi qilgan bo‘ldim. (O‘.Hoshimov). Birinchi qor ham shu tepalik boshiga yog‘adi, birinchi maysalar ham Xirmontepa bag‘rida ko‘karadi. (O‘.Hoshimov). Uch-to‘rtta yirik-yirik qora qushlar nimanidir mo‘jalga olib shoshilmay aylanishadi. (P.Qodirov).
- 3) olmosh bilan: Allaqaysi dengiz qushlarining odati qiziq ekan. (O‘.Usmonov) Har bir qiyinchilikdan so‘ng bir rohat bor. (Maqol).
- 4) ot bilan: Asfalt ko‘chaning u er bu erida suv xalqob bo‘lib yotardi. (O‘.Hoshimov). Kumush so‘zingni chaqaga mayda qilma. (Maqol).

- 5) -dagi affiksini olgan otlar ham sifatlovchi vazifasini bajaradi. Masalan: Uydagi har bitta buyum Ma'sudani esimga soladi. (P.Q.). Toshkentlik yosh olim... atrofdagi cho'ponlarni to'plab, ziyofat qilib bermoqda... edi. (P.Q.).
- 6) sifatdosh bilan: Unda dam oladigan va yo tunab qoladigan manzil yo'q. (K.Yashin). Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt. (Maqol).
- 7) ravish bilan: Ko'p befoyda narsalarni o'rganganingdan ko'ra senga doimo xizmat qiladigan besh-o'nta yaxshi o'gitni bilgанин ma'qulroq. (Seneka).
- 8) taqlid so'z bilan: G'ir-g'ir mayin bahor shamoli. (Oybek). Bir gala o'rdak kanal bo'yiga tushdi. Bularning g'aq-g'uq ovozi ancha vaqtgacha bosilmadi. (S.Ahmad).

Sifatlovchi ba'zan so'z birikmasi bilan ham ifodalanadi. Masalan: Qaramaqarshi turgan ikki eshikning birini shaxt bilan ochdi... (P.Qodirov). Dunyoda xushfe'l, oljanob, hamisha ezgu niyat bilan ish qiladigan odamlar juda ko'p (O.Husanov). Sifatlovchi vazifasini gapga teng predikativ birliklar ham bajarishi mumkin: Himmati zo'r kishining qimmati zo'rdir. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

2.Qaratqich aniqlovchi

Bu aniqlovchi ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalangan bo'lakka muvofiqlashuv yo'li bilan bog'lanib, o'zi ifodalayotgan shaxs yo predmetga boshqa bir shaxs yoki predmetning qarashli, tegishli ekanini bildiruvchi aniqlovchining bir turidir. U kimning? nimaning? qayerning? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Qaratuvchi bog'lanib kelgan so'z qaralmish deb yuritiladi. Qaratuvchi quyidagicha ifodalanadi:

- 1) ot yoki ot o'mnida qo'llanadigan olmosh bilan: Tip-tiniq fazoning bir burchida turnalar karvoni ko'rindi. Zum o'tmay ularning o'ychan sadolari havoni to'ldirdi... (O'.Hoshimov).
- 2) harakat nomi bilan: U bilan uchrashishning ming xil yo'lini izladi. (S.Ahmad). Ovora bo'lmoqning nima zarurati bor? (A.Qodiriy).
- 3) otlashgan sifat bilan: Nomardga ishi tushmagan mardning qadrini bilmas. (Maqol). Tekinning minnati ko'p, mehnatning ziynati ko'p. (Maqol). Qo'rkoqning ko'zi katta, ahmoqning so'zi katta. (Maqol).
- 4) otlashgan son bilan: O'nning yarmi – besh.
- 5) otlashgan olmosh bilan (sifat, son o'mnida qo'llanadigan otlashgan olmosh bilan): Buning sababi ko'p. (P.Qodirov).
- 6) otlashgan sifatdosh bilan: O'qiganning tili ko'p uzun bo'ladi. (Maqol).
- 7) otlashgan ravish bilan: Ertaning buguni bor, bugunning ertasi bor. (Maqol).¹

¹ M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.

Ayub G‘ulomovning aniqlovchiga nisbatan fikrlari

Aniqlovchi predmetning belgisini anglatadigan bo‘lakdir. Bunda u belgi predikativlik yo‘li bilan emas, atributivlik yo‘li bilan aniqlanadi. Aniqlovchining belgi anglatishi predmetning biror sifatini, xususiyatini, miqdorini yoki qarashlilikni va shuning kabi xususiyatlarni ifodalashdan iborat. Misollar: **Qizil bayroq** hilpiraydi. U **o‘nta daftar** oldi. Sovetlar mamlakatining **cheksiz osmonida** quyosh porlamoqda. Misollardan ko‘rinib turibdiki aniqlovchilar ushbu gapda predmetning belgisini, miqdori va qarashlilik ma’nolarni anglatib kelmoqda.

Aniqlovchining predmet (keng ma’noda) belgisini anglatishidan uning otga bog‘lanishi kelib chiqadi (lekin yugurmoq, yugurish tipidagi so‘zlarga - infinitiv va harakat nomlariga bog‘lanmaydi , chunki bu vaqt hol vujudga keladi). Bu ot gapning har qanday bo‘lagi bo‘lib keloladi Bu holat uning aniqlovchisiga ta’sir etmaydi.

Aniqlovchi bo‘lak aniqlanmish bilan zich bog‘langan bo‘ladi. Ularning ikkalasi birlikda aniqlovchili birikma sanaladi: aniqlovchi + aniqlanmish = aniqlovchili birikma.

Ayub G‘ulomov aniqlovchini ifodalanishini quyidagicha tasniflaydi:

1. **Sifat bilan:** ulug‘ mamlakat, qizil bayroq, keng dalalar, ko‘osmon, qora ko‘ylak, oq stul, qora mashia va boshqalar;
2. **Sifatdosh bilan:** oqar suv, o‘qign boa, gullagan vodiylar, qizargan gul, ko‘kargan yuz, qoraygan non;
3. **Ravish bilan:** ancha kitob, shuncha daftар;
4. **Son bilan:** o‘n besh student, o‘ttizta kitob, beshta telefon, yuzta maktab, uchta sumka;
5. **Ad’ektiv xarakterdagi (funksiyasi jihatidan sifatga o‘xshagan) olmosh bilan:** qaysi kitob?, o‘sha bola, qaysi kun?
6. **Sifat vazifasidagi ot bilan:** anor yuz, oltin ko‘z, oltin yaproqlar, shisha osmon;
7. **Undov so‘zlar bilan** (keng ma’noda; bu o‘rinda mimema kovzda tutiladi): g‘ir-g‘ir shamol, shiq-shiq tugma, paq-paq o‘rik va boshqalar;¹

Ayub G‘ulomov aniqlovchi orqali so‘zlarning birikishini 3 tipga ajratgan. Bular quyidagilar:

1. 1-tip belgili forma ;
2. 2-tip belgisiz forma ;
3. 3-tip umuman qarashlilik va belgi.

Aytish joizki, Ayub G‘ulomov ushbu qaratqichli birikmalar asosida bir predmet bilan ikkinchi predmet o‘rtasidagi keng ma’noda kelganda qarashlilik va xoslikni

¹ A.G.‘Gulomov, M.A. Asqarova. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Sintaksis. “O‘qituvchi” nashriyoti Toshkent – 1965.

anglatishini ko'rsatib bergen. Bundan tashqari asosan otning ot bilan aloqasini aniqlovchiliuk aloqasi deb keltirgan. Bunda otli birikma (qaratqich – ot) formasida keladi. Mislolar: o'rikning guli, uzumning shirasi, ruchkaning rangi, qalamning uchi va hokazo.

Aniqlovchilik aloqasida birinchi bo'lak birinchi bo'lak yuqorida keltirgan shaklda ya'ni (qaratqich – ot) shaklida qaratqich kelishigidagi affiksni oladi, ikkinchi bo'lak (qaralmish – ot) egalik affiksini oladi (paxtaning plani, ishning plani). Bazan qaratqich kelishigi affiksi qo'llanimaydi (paxta plani, ish plani), og'zaki nutaqda esa ba'zan egalik affiksi ham qo'llanmaydi (paxta plan, ish plan). Bu tiplarni ya'ni birinchi (belgili) va ikkinchi (belgisiz) tipdagi shakllarni o'rnini almashtirsak bunda Grammatik va mazmunan bir-biridan farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Bunda bir qaratqichning qaysi shaklga kirishi – uchta turning qaysi birida bo'lishi ma'no va Grammatik xususiyat bilan bog'liq. Quyidagi misollar orqali 3 ta tipni bir-biri bilan chog'ishtirishimiz mumkin:

Kolxoz bog'i – (umuman qarashlilik va belgi ma'nosi);

Kolxozning bog'i – (ta'kid, ko'pincha konkret qarashlilik);

Gorkiy asarlari – (konkret qarashlilik: qaratqich atoqli ot bilan ifodalangan). Demak, qaratqichning xoslik ma'nosini belgilashda o'sha qaratqich bo'luvchi so'zning leksik ma'nosi, leksik- semantik xususiyati ham kata rol o'ynaydi.

Birinchi tipning aniqlovchisi ("belgili" qaratqich) orqali quyidagi ma'nolar ifodalanishi mumkin:

1.Qaralmish bilan ifodalangan predmetning ma'lum konkret predmetga xosligi anglatiladi: Ruxsoraning daftari,daftari kabi, sening ukang, sening opang;

2. Umuman xoslik anglatiladi: chinoring bargi, gudokning tovushi, qalamning rangi, avtomabilning kaliti;

3.Butunning bo'lagi anglatiladi: qovunning urug'I, tarvuzning donagi, piyozning po'sti, daraxtning bargi;

4. To'pdan ajratilgan qismni anglatadi: studentlarning biri (studentlardan biri). Bunday konstruksiyalarda qaratqich va chiqish kelishiklarining funksiyasi, ma'nosi bir-biriga yaqinlashadi;

5. O'ringa va vaqtga munosabat ma'nosi anglatiladi: Mirzacho'lning bog'lari, dalalari, ko'klamning shamollari;

6. Harakatning sub'yekt bilanbo'lgan munosabati bildiriladi (bunday vaqtida qaralmish aniq nisbatdagi harakat nomi bilan keladi) : Faridaning kuylashi;

7. Harakat bilan obyekt munosabatini bildiradi (bunday vaqtida qaralmish majhul nisbatdagi harakat nomi bilan ifodalanadi) : muzikaning chalinishi.

Ayub G'ulomov qaratqich bilan ifodalangan ma'nolarda qaratqich vazifasida keluvchi so'zlarning leksik xususiyatiga bog'liqligini ko'rsatib beradi. Bunda o'rin va

paytga munosabat bildirish uchun qaratqich odatda joy yoki payt otlari bilan ifodalanadi va leksik ma'nosiga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari qolgan tiplardagi o'xshashlik va farqli jihatlar mavjud bular : umuman xoslikni anglatish (shahar bog'i), o'ringa va vaqtga munosabat ma'nosini anglatish (yoz tongi, Moskva yo'li), konkret xoslik anglatish (Pushkin asarlari), harakat bilan obyekt munosabatini anglatish (Muzika chainishi bilan hamma qo'zg'aldi), harakat bilan sub'yekt munosabatini anglatish (qush sayrashi) va shunga o'xshash ma'nolarni keltirishimiz mumkin.

Endi uchinchi tip haqida qisqacha aytadigan bo'lsak bunda aniqlovchi o'z ma'nosini asl ma'nosini yo'qotib ko'chma ma'noda qo'llanadi. Odatdagidek sifatlovchi birikma bo'ladi. Masalan: oltin soat (oltindan ishlangan soat) , oltin yaproq (oltindek yaproq), anor po'choq (anorning po'chog'idek) , anor yuz (qizil yuz). O'xhatish bildiradigan bunday konstruksiyalarda birinchi kelgan ot okkazional (leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'limgan, ayrim shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha «tus» berishi natijasida yuzaga keltirilgan sun'iy ma'nodir. U individual xarakterda bo'ladi va faqat kontekstda anglashiladi) ravishda sifat bo'lib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Ayub G'ulomovning aniqlovchiga oid qarashlarida asosan, aniqlovchili tiplar, aniqlovchili birikmalar, ularning leksik hamda leksik-semantik ma'nolari, 3 ta tipning bir-biridan o'xshash va farqli jihatlari, bundan tashqari nutq jarayonidagi ma'nolari, turlari haqida ajoyib fikrlar berilganligini ko'rishimi mumkin. Bu maqolada ham Ayub G'ulomovning fikrlari asosida aniqlovchining turlari, tiplari, hamda darsliklarda hamda internet saytlarida joylashtirilgan manbalar asosida ma'lumotlarning o'xshash va farqli jihatlari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. (o'quv qo'llanma). TDPU, Toshkent, 2009-yil.
3. A.G'.G'ulomov, M.A. Asqarova. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Sintaksis. "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent – 1965.